

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEKISTONDA QADIMGI TARIX VA ARXEOLGIK TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ergashev Shohruhbek Kamoliddin o'g'li

Mirzaobod tumanidagi muhandislik maktabi, o'qituvchi.

e-mail: shohruxbekergashev20@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0891-1195>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekiston hududining qadimgi tarixini o'rganish va arxeologik tadqiqotlarning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi dastlabki arxeologik kuzatuvlardan boshlab, sovet davridagi ilmiy ekspeditsiyalar, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda zamonaviy arxeologiyaning yangi metodologik yo'nalishlari yoritiladi. O'zbekiston hududidagi paleolit, neolit, bronza, ilk temir va antik davr yodgorliklarini o'rganishda arxeologik manbalarning o'rni, yirik ilmiy ekspeditsiyalar hamda tadqiqotchilarning ilmiy merosiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: qadimgi tarix, arxeologiya, arxeologik yodgorlik, ekspeditsiya, paleolit, neolit, bronza davri, ilk temir davri, antik davr, moddiy madaniyat.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ ДРЕВНЕЙ ИСТОРИИ И АРХЕОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эргашев Шохрухбек Камолитдин угли

Инженерная школа Мирзаабатского района, преподаватель.

Аннотация.

В данной статье анализируются этапы становления и развития изучения древней истории и археологических исследований на территории Узбекистана. Освещаются первые археологические наблюдения конца XIX – начала XX века, научные экспедиции советского периода, исследования, проведенные в годы независимости, а также новые методологические направления современной археологии. Особое внимание уделяется роли археологических источников в изучении памятников палеолита, неолита, бронзового века, раннего железного века и античного периода на территории Узбекистана, а также деятельности крупных научных экспедиций и научному наследию исследователей.

Ключевые слова: древняя история, археология, археологический памятник, экспедиция, палеолит, неолит, бронзовый век, ранний железный век, античный период, материальная культура.

STAGES IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT HISTORY AND ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN

Ergashev Shohruhbek Kamoliddin o'g'li

Engineering School of Mirzaabad District, Teacher.

Abstract.

This article analyzes the stages in the formation and development of ancient history studies and archaeological research in Uzbekistan. It covers the earliest archaeological observations of the late nineteenth and early twentieth centuries, scientific expeditions conducted during the Soviet period, research carried out during the years of independence, and new methodological approaches in contemporary archaeology. Particular attention is paid to the role of archaeological sources in the study of Paleolithic, Neolithic, Bronze Age, Early Iron Age, and ancient-period sites in Uzbekistan, as well as to major scientific expeditions and the scholarly legacy of prominent researchers.

Keywords: ancient history, archaeology, archaeological site, expedition, Paleolithic, Neolithic, Bronze Age, Early Iron Age, ancient period, material culture.

Kirish. O'zbekiston hududi insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab muhim tarixiy-madaniy jarayonlar kechgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Respublika hududida aniqlangan paleolit makonlari, neolit manzilgohlari, bronza davri dehqonchilik madaniyatlari, ilk shahar markazlari, qadimgi mudofaa inshootlari va antik davr yodgorliklari Markaziy Osiyo tarixini rekonstruksiya qilishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu sababli O'zbekiston qadimgi tarixini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi davrlarga oid yozma manbalarning nisbatan kamligi arxeologik materiallarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan mehnat qurollari, sopol buyumlar, qurol-aslahalar, tangalar, me'moriy qoldiqlar, dafn inshootlari va boshqa moddiy manbalar qadimgi jamiyatlarning xo'jaligi, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, diniy tasavvurlari va madaniyatini tadqiq etish imkonini beradi. O'zbekistonda

arxeologik izlanishlarning shakllanishi bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Har bir bosqich tadqiqotlarning maqsadi, metodologiyasi, ilmiy muassasalarning faoliyati va arxeologik manbalarni talqin etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekiston qadimgi tarixi va arxeologiyasini o'rganish jarayonida bir necha avlod olimlarining ilmiy izlanishlari muhim o'rin egallaydi. Dastlabki bosqichda V. V. Bartold, N. I. Veselovskiy, V. L. Vyatkin kabi sharqshunos va arxeologlarning faoliyati mintaqadagi tarixiy yodgorliklarni aniqlash va tavsiflashga xizmat qildi [1].

XX asrning 30–80-yillarida arxeologik tadqiqotlarning ko'lamli sezilarli ravishda kengaydi. S. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati natijasida qadimgi Xorazmning ko'plab qal'alari, sug'orish tizimlari va aholi manzilgohlari o'rganildi [2]. Y. G'. G'ulomovning tadqiqotlari esa O'zbekistonning qadimgi sug'orish tarixi va dehqonchilik madaniyatini o'rganishda muhim ilmiy yo'nalishni shakllantirdi [3]. A. P. Okladnikov, M. M. Gerasimov, D. N. Lev, M. R. Qosimov kabi olimlarning izlanishlari O'zbekistonning tosh davri tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Teshiktosh, Obirahmat, Ko'lbuloq singari yodgorliklarning tadqiq qilinishi O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlarning yashashi va moddiy madaniyati haqida yangi ilmiy ma'lumotlarni yuzaga chiqardi. A. Asqarov, Y. F. Buryakov, E. V. Rtveladze, R. H. Sulaymonov va boshqa olimlarning tadqiqotlari bronza davri, ilk shaharsozlik, qadimgi Baqtriya, Sug'd, Choch va boshqa tarixiy-madaniy hududlarning tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlarning rivojlanishini muayyan tarixiy bosqichlarga ajratishda tarixiy-qiyosiy va xronologik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlarning natijalari yozma manbalar va tarixshunoslik ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Muammoni o'rganishda arxeologik yodgorliklarning tadqiq etilish tarixi, ekspeditsiyalar faoliyati va olimlarning ilmiy konsepsiyalaridagi o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Muhokama va natijalar (Discussion and results)

O'zbekiston hududidagi qadimiy yodgorliklarga ilmiy qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmida sezilarli darajada kuchaydi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni egallashi natijasida hudud geografiyasi, etnografiyasi, tarixi va arxeologiyasini o'rganishga qaratilgan izlanishlar boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar ko'proq tarixiy obidalarni qayd qilish, qadimiy buyumlarni yig'ish, tangalarni o'rganish va yodgorliklarning geografik joylashuvini aniqlash xususiyatiga ega edi. Bu davrda zamonaviy arxeologik qazish metodlari hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, to'plangan ma'lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

1895-yilda Toshkentda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagining tashkil etilishi mintaqa arxeologiyasi rivojida muhim voqea bo'ldi. To'garak a'zolari tarixiy va arxeologik yodgorliklarni aniqlash, qayd etish va ular haqidagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish bilan shug'ullandilar. Natijada arxeologik merosni tizimli ravishda o'rganishning dastlabki tashkiliy asoslari yaratildi. XX asrning dastlabki o'n yilliklaridan boshlab O'zbekistonda arxeologik izlanishlar asta-sekin maxsus ilmiy yo'nalishga aylandi. Arxeologik yodgorliklarni faqat tavsiflash emas, balki qazishmalar asosida tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya qilishga e'tibor kuchaydi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Termiz, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va boshqa hududlarda tadqiqotlar amalga oshirildi. Arxeologik materiallarni davrlashtirish, madaniy qatlamlarni aniqlash va topilmalarni tipologik jihatdan tasniflash usullari rivojlana boshladi.

Mazkur bosqich O'zbekistonda professional arxeologiyaning shakllanishi va keyinchalik keng miqyosli ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish uchun zamin yaratganligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston arxeologiyasi rivojining eng muhim bosqichlaridan biri XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda respublikaning deyarli barcha tarixiy-madaniy hududlarida muntazam arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. 1938-yildan boshlab S. P. Tolstov rahbarligida faoliyat olib borgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Markaziy Osiyo arxeologiyasi tarixidagi yirik ilmiy loyihalardan biriga aylandi. Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a va boshqa yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar qadimgi Xorazm davlatchiligi, shaharsozligi, irrigatsiyasi va moddiy madaniyatini o'rganishda muhim natijalar berdi [2].

Y. G'. G'ulomovning qadimgi sug'orish tizimlari bo'yicha tadqiqotlari O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyati va o'troq hayotning rivojlanishini tarixiy jihatdan asoslash imkonini berdi [3]. Surxondaryo hududidagi Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarining o'rganilishi bronza davridagi dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik, me'morchilik va ilk urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq qilishda yangi ilmiy natijalarni yuzaga chiqardi. A. Asqarov boshchiligidagi tadqiqotlar Janubiy O'zbekistonning bronza davri tarixini o'rganishda alohida ilmiy maktab shakllanishiga xizmat qildi [4].

O'zbekiston qadimgi tarixini tadqiq etishda paleolit va mezolit yodgorliklarining topilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Teshiktosh g'oridan neandertal bola qoldiqlarining aniqlanishi Markaziy Osiyoning antropogenez va paleolit tarixidagi o'rnini ko'rsatib berdi. Keyinchalik Ko'lbuloq, Obirahmat, Qo'tirbuloq va boshqa makonlarda olib borilgan tadqiqotlar qadimgi odamlarning mintaqada uzoq vaqt davomida yashaganini tasdiqlovchi arxeologik materiallarni taqdim etdi. Tosh qurollarining texnik-tipologik tahlili qadimgi aholining xo'jalik faoliyati, ovchilik usullari va tabiiy muhitga moslashish jarayonlarini aniqlashga imkon yaratdi. Natijada O'zbekiston hududining paleolit davri tarixiga oid ilmiy tasavvurlar sezilarli darajada kengaydi. Bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklarni o'rganish O'zbekiston hududida o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va urbanizatsiya jarayonlarining shakllanish tarixini aniqlash imkonini berdi.

Sopollitepa va Jarqo'ton singari yodgorliklardan aniqlangan me'moriy majmualar, hunarmandchilik mahsulotlari, dafn marosimlari va xo'jalik buyumlari jamiyatning murakkablashib borganidan dalolat beradi [4]. Qadimgi Baqtriya, Sug'd, Xorazm va Choch hududlaridagi arxeologik izlanishlar esa O'zbekiston hududidagi davlatchilik va shahar madaniyatining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatuvchi moddiy manbalar bazasini sezilarli ravishda

kengaytirdi.

Afrosiyob, Qanqa, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Eski Termiz kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar siyosiy tarix bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni ham o'rganishga xizmat qildi.

O'zbekistonda qadimgi tarix va arxeologik tadqiqotlarning rivojlanishida akademik Edvard Vasilevich Rtveladzening ilmiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Olim o'zining ko'p yillik izlanishlarini Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, arxeologiyasi, numizmatikasi, epigrafikasi, san'ati hamda madaniy aloqalarini kompleks tadqiq etishga bag'ishladi. Uning tadqiqotlarida, ayniqsa, qadimgi Baqtriya va Toxariston, Shimoliy Baqtriyaning shahar madaniyati, Buyuk Ipak yo'li, qadimgi savdo yo'llari hamda ellinistik va Kushon davri tarixiga oid masalalar yetakchi o'rin egallaydi [7].

E. V. Rtveladze 1967-yilda Toshkent davlat universitetining tarixchi-arxeolog mutaxassisligini tamomlaganidan so'ng O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat boshladi. Uning arxeologik dala tadqiqotlari bundan ham oldin boshlangan bo'lib, keyingi o'n yilliklarda olim O'zbekiston va Markaziy Osiyoning ko'plab arxeologik yodgorliklarini o'rganishda ishtirok etdi. Xususan, Dalvarzintepada 1968-1979-yillarda olib borilgan tadqiqotlarda qatnashishi uning Shimoliy Baqtriya arxeologiyasi bo'yicha ilmiy qarashlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi [7].

Olimning ilmiy faoliyatida Surxondaryo vohasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu hududdagi arxeologik materiallarni yozma, numizmatik va epigrafik manbalar bilan qiyosiy o'rganish orqali qadimgi Baqtriya va o'rta asr Toxaristonining tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonlarini yoritishga harakat qildi. Natijada Shimoliy Baqtriya hududidagi urbanizatsiya, savdo-iqtisodiy aloqalar va siyosiy jarayonlarni o'rganishga oid ilmiy qarashlar yanada boyidi.

E. V. Rtveladze faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri Kampirtepa arxeologik yodgorligini tadqiq etish bilan bog'liq. Olim 1972-yilda Amudaryo vohasida olib borgan arxeologik qidiruv ishlari davomida ushbu yodgorlikni aniqlagan. Keyinchalik Kampirtepa muntazam arxeologik qazishmalar olib borilib, uning mudofaa inshootlari, turar joy majmualari, ko'chalar tizimi va moddiy madaniyatiga oid ko'plab topilmalar o'rganildi [7].

Kampirtepa tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, yodgorlikdan olingan arxeologik materiallar Amudaryo bo'yidagi qadimgi shaharsozlik va savdo-kommunikatsiya tizimini o'rganish imkonini berdi. Shahar xarobalaridagi ellinistik va Kushon davrlariga oid madaniy qatlamlar, me'moriy qoldiqlar, sopol buyumlar, tangalar va boshqa topilmalar Janubiy O'zbekistonning antik davrdagi siyosiy hamda iqtisodiy tarixini rekonstruksiya qilish uchun muhim manbaga aylandi.

1999-yilda E. V. Rtveladze rahbarligida Toxariston arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etilishi uning arxeologik faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Ekspeditsiyaning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri Shimoliy-G'arbiy Baqtriya va Toxariston hududlaridagi qadimgi yodgorliklarni kompleks o'rganishdan iborat edi. Mazkur ekspeditsiya doirasida Kampirtepa asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Xalqaro ilmiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi esa yodgorlikni o'rganishda yangi metod va ilmiy yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratdi.

Ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar asosida E. V. Rtveladze Kampirtepani antik yozma manbalarda qayd etilgan Oks Aleksandriyasi bilan lokalizatsiya qilish haqidagi ilmiy qarashni ilgari surdi [7]. Olim bu masalani faqat arxeologik topilmalar asosida emas, balki yozma manbalar va tarixiy kartografiya ma'lumotlarini o'zaro qiyoslash orqali asoslashga harakat qildi. Mazkur qarash ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinayotgan masalalardan biri bo'lsa-da, Kampirtepa tadqiqotlari Amudaryo kechuvlari, qadimgi savdo yo'llari va ellinistik davr shahar madaniyatini o'rganishda yangi ilmiy ma'lumotlarni yuzaga chiqardi.

E. V. Rtveladzening ilmiy merosida numizmatik tadqiqotlar ham muhim o'rin tutadi. Qadimgi Markaziy Osiyo tangalarini tarixiy manba sifatida o'rganish orqali olim siyosiy hokimiyat, hukmdorlar sulolalari, iqtisodiy munosabatlar va madaniy aloqalarga oid qator masalalarni yoritdi. Uning "Древние монеты Средней Азии" asari Markaziy Osiyo numizmatikasiga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi [7].

Olimning tadqiqotlarida Buyuk Ipak yo'li tarixiga ham katta e'tibor qaratilgan. Arxeologik yodgorliklar, qadimgi yo'llar, daryo kechuvlari va shahar markazlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish orqali Markaziy Osiyoning Sharq va G'arb o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalardagi o'rnini yoritishga intildi. Bu jihatdan uning tadqiqotlari arxeologiyani tarixiy geografiya, numizmatika, epigrafika va yozma manbalar bilan uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv bilan ajralib turadi.

1991-yildan keyin O'zbekiston arxeologiyasi rivojida yangi bosqich boshlandi. Qadimgi tarixni milliy davlatchilik, madaniy meros va sivilizatsion jarayonlar nuqtayi nazaridan qayta o'rganishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston olimlarining Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar mutaxassislari bilan hamkorlikdagi ekspeditsiyalari kengaydi. Xalqaro arxeologik loyihalar natijasida yangi metod va texnologiyalar ilmiy amaliyotga kirib keldi.

Arxeologik materiallarni radiokarbon tahlili, antropologik va paleogenetik tadqiqotlar, arxeobotanika, zooarxeologiya, GIS texnologiyalari hamda masofadan zondlash usullari yordamida o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday yondashuv arxeologik yodgorlikni faqat moddiy topilmalar majmui sifatida emas, balki qadimgi jamiyat va tabiiy muhit o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi tarixiy tizim sifatida o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqillik davrida arxeologik merosni muhofaza qilish, yodgorliklarni davlat ro'yxatiga olish, konservatsiya va restavratsiya qilish, ularni turizm va madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish masalalariga ham katta e'tibor berila boshlandi.

O'zbekistonda qadimgi tarix va arxeologik tadqiqotlarning rivojlanish jarayonini shartli ravishda bir necha asosiy bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarini qamrab olib, unda tarixiy yodgorliklarni aniqlash va dastlabki tavsiflash ishlari ustunlik qilgan.

Ikkinchi bosqich XX asrning 20-30-yillariga to'g'ri kelib, professional arxeologik tadqiqotlarning tashkiliy va

metodologik asoslari shakllangan.

Uchinchi bosqich XX asrning 30-yillari oxiridan 1991-yilgacha davom etib, keng ko'lamli arxeologik ekspeditsiyalar va muayyan hudud hamda davrlarga ixtisoslashgan ilmiy maktablarning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

To'rtinchi bosqich O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrni qamrab oladi. Ushbu davrda milliy ilmiy konsepsiyalarning rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va tabiiy fanlarning zamonaviy usullarini arxeologiyaga tatbiq etish jarayoni kuchaydi.

Shu tariqa, O'zbekiston arxeologiyasi oddiy topilmalarni yig'ish va yodgorliklarni tavsiflashdan kompleks fanlararo tadqiqotlar darajasigacha bo'lgan katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Xulosa (Conclusion)

O'zbekiston hududida qadimgi tarix va arxeologik tadqiqotlarning shakllanishi uzoq davom etgan ilmiy jarayon natijasidir. XIX asr oxiridagi dastlabki kuzatuv va izlanishlardan boshlangan jarayon XX asr davomida professional arxeologik maktablarning shakllanishi, yirik ekspeditsiyalarning tashkil etilishi va ko'plab noyob yodgorliklarning ilmiy o'rganilishi bilan davom etdi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida O'zbekiston hududining paleolit davridan boshlab qadimgi va antik davrlargacha bo'lgan tarixiga oid ulkan moddiy manbalar bazasi yaratildi. Teshiktosh, Ko'lbuloq, Obirahmat, Sopollitepa, Jarqo'ton, Afrosiyob, Qanqa, Tuproqqa'l'a, Qo'yqirilganqa'l'a, Dalvarzintepa va boshqa yodgorliklarning tadqiq etilishi mintaqada qadimgi aholi, xo'jalik, shaharsozlik, davlatchilik va madaniy jarayonlarni ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida arxeologik tadqiqotlarning metodologik va texnologik imkoniyatlari yanada kengaydi. Xalqaro ilmiy hamkorlik, zamonaviy laboratoriya tahlillari, GIS va raqamli texnologiyalardan foydalanish O'zbekiston arxeologiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. *Сочинения: в 9 т.* – Москва: Издательство восточной литературы; Наука, 1963–1977. (*Библиотека ОМГУ*) URL: <https://otval.spb.ru/library/bartold-vv-obra.htm>
2. Толстов С. П. *Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования.* – Москва: Изд-во МГУ, 1948. – 352 с. (*РГБ*) URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_006039208/
3. G'ulomov Ya. G'. *Xorazmning sug'orilish tarixi: qadimgi zamonlardan hozirgacha.* – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. (*Ziyo*) URL: <https://archive.nyu.edu/handle/2451/40028>
4. Аскарлов А. А. *Сапаллумепа.* – Ташкент: Фан, 1973. – 172 с. (*РСЛ*) URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01007237880>
5. Окладников А. П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // *Тешик-Таш: палеолитический человек.* – Москва: Изд-во Московского государственного университета, 1949. – С. 7–86. (*Инион*) URL: <https://inion.ru/ru/science/tematicheskie-resursy/materialy-k-biobibliografii-uchenykh/okladnikov-aleksei-pavlovich/>
6. Буряков Ю. Ф. *Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса.* – Ташкент: Фан, 1982. – 212 с. (*Факультетский цифровой архив*) URL: <https://archive.nyu.edu/handle/2451/42439>
7. Ртвеладзе Э. В. *Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии.* – Ташкент: Университет мировой экономики и дипломатии, 2005. – 288 с. (*СтудМед*) URL: https://www.studmed.ru/rtveladze-e-civilizacii-gosudarstva-kultury-centralnoy-azii_bf211a745c0.html
8. Сулейманов Р. Х. *Древний Нахшаб: проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н. э.* – Ташкент: Фан, 2000. – 344 с. – ISBN 5-648-02616-1. (*Akbt*) URL: <https://akbt.uzdxa.uz/uz/books/1540>